

OMMAVIY OFERTA

«AAAJoyib TANLOV»

rag‘batlantiruvchi aksiyasida ishtirok etish qoidalari

Ushbu “AAAJoyib TANLOV” rag‘batlantiruvchi aksiyasi (“**Aksiya**”)da ishtirok etish qoidalari “SAMSUNG ELECTRONICS UZBEKISTAN” MChJ XK (“**Tashkilotchi**”) va Aksiya ishtirokchisi o‘rtasidagi kelishuvdir. Aksiyada ishtirok etish ixtiyoriydir va Aksiya Ishtirokchilari https://www.samsung.com/uz_uz/offer/aaajoyib-contest/ manzilida joylashtirilgan rasmiy internet-do‘kon veb-saytida (“**Aksiya sayti**”) Aksiya qoidalari (“**Qoidalar**”) bilan tanishganligini va so‘zsiz roziligini bildiradi

1. Umumiy shartlar

1.1. Tashkilotchi: “SAMSUNG ELECTRONICS UZBEKISTAN” MChJ XK, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Oloy Bozori Berk ko‘chasi, 64-uy manzilida joylashgan.

1.2. Aksiyaning o‘tkazilish davri: 2025-yil 28-may soat 00:00 dan (Toshkent vaqti bilan) 2025-yil 28-iyun soat 23:59 gacha (shu kuni ham qo‘shilgan holda), Toshkent vaqti bilan.

1.3.1. Aksiya natijalarini sarhisob qilish sanasi: 2025 yil 30 iyun soat 18:30 dan 21:00 gacha

1.3.2 Aksiya o‘tkazilish hududi: Rasmiy sahifa: “SAMSUNG ELECTRONICS UZBEKISTAN” XK MChJning Instagram’dagi sahifasi — <https://www.instagram.com/samsunguzbekistan>

1.4. Aksiya veb-sayti Aksiya haqida asosiy ma’lumot manbayi hisoblanadi. Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlaridagi Aksiya haqidagi ma’lumotlar qisqartirilgan bo‘lib, barcha to‘liq va batafsil ma’lumotlar ushbu Qoidalarda keltirilgan.

2. Aksiya Ishtirokchisi

2.1. Ushbu Qoidalarining barcha shartlarini shaxsan, o‘z kuchi va vositalari bilan bajargan, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega, 18 yoshga to‘lgan, muomalaga layoqatli barcha jismoniy shaxslar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida yashash uchun ruxsatnomaga ega bo‘lgan chet el fuqarolari Aksiya Ishtirokchilari bo‘lishi mumkin ("**Ishtirokchi**").

2.2. Tashkilotchining xodimlari, affillangan shaxslar, ularning oila a‘zolari, shuningdek, Aksiyani tashkil etish va o‘tkazishda ishtirok etayotgan boshqa kompaniyalar xodimlari Aksiyada ishtirok eta olmaydi.

2.3. Aksiyada ishtirok etib, shuningdek, ro‘yxatdan o‘tish paytida va boshqa yo‘llar bilan har qanday ma’lumotni (shu jumladan Aksiya veb-saytida), shunidek shaxsiy ma’lumotlarni quyidagi hajmda taqdim etish orqali, Ishtirokchi o‘z shaxsiy ma’lumotlarini to‘plash, saqlash, uzatish shu jumladan transchegaraviy ravishda va qayta ishlashga roziligini beradi: Aksiyani,

uning shartlariga rioya etilishini, reklama, marketing va axborot byulletenlarini monitoring qilish, shuningdek marketing maqsadlarida boshqa bevosita aloqalarni o'rnatish maqsadida Tashkilotchiga va u vakolat bergan uchinchi shaxslarga o'zining joylashgan shahri, to'liq ismi, shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari (shaxsni tasdiqlovchi hujjat yoki chet el fuqarosining yashash ruxsatnomasi), telefon raqami, elektron pochta manzili, yashash manzili haqida ma'lumotlarni taqdim etadi. Rozilik belgilangan qayta ishlash maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan uzatilgan ma'lumotlarni qayta ishlashning barcha turlariga nisbatan qo'llaniladi, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: olish, ovozli/tasvirli yozib olish, saqlash, aniqlashtirish, foydalanish, o'chirish, yo'q qilish, uzatish (shu jumladan amaldagi qonunchilikka muvofiq transchegaraviy uzatish), shu jumladan Tashkilotchining vakolatli shaxslariga/boshqa vakolatli shaxslarga/uchinchi shaxslarga. Rozilik bunday ma'lumotlar Tashkilotchiga topshirilgan paytdan boshlab va amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda ushbu rozilik qaytarib olinmaguncha amal qiladi.

2.4. Aksiya da ishtirok etish orqali Ishtirokchi Tashkilotchiga foto/video suratga olish, saqlash, foydalanish, o'z surati/ishtiroki bilan tegishli foto/video materiallarni Tashkilotchining veb-saytida, Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida, shuningdek, boshqa maqsadlarda joylashtirishga shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, buxgalteriya hisobotini olib borish va hisobot uchun foydalanishga so'zsiz va beg'araz rozilik beradi.

3. Aksiyaning tavsifi:

3.1. Ushbu Qoidalar ga muvofiq, barcha belgilangan shartlar bajarilganda, Ishtirokchi ushbu Qoidalarda ko'rsatilgan tartibda sovg'a sifatida Samsung Electronics telefonlaridan birini olish imkoniyatiga ega bo'ladi (Modellar: Samsung Galaxy A56 5G (SM-A566EZGASOZ), Samsung Galaxy A36 5G (SM-A366ELVDSOZ), Samsung Galaxy A26 (SM-A266BZWHSOZ)), agar ushbu Qoidalar ning 4-bandida bayon etilgan barcha shartlar bajarilgan bo'lsa.

4. Aksiya da ishtirok etish shartlari:

4.1. Bizning Instagram va Telegram kanallarimizga obuna bo'ling, obuna bo'lganingizni tasdiqlovchi skrinshotni bizga yuboring. Screenshot yuborish uchun havolalar: Instagram kanali: <https://www.instagram.com/samsunguzbekistan?igsh=ZHpwMXM5eXEzeDIx>, Telegram kanali: <https://t.me/SamsungUzbekistan>:

4.2. Galaxy Camera yordamida kreativ foto suratga olish

4.2. Trek qo'shing: Samsung Galaxy AAAajoyib trek.

4.3. Instagram'dagi shaxsiy akkauntingizga yoki lenta (feed)ga surat yuklang (История/Stories ga emas)

4.4. Rasmiy Samsung Uzbekistan akkauntini belgilang: @SamsungUzbekistan.

4.5. Samsung Instagram sahifasidagi rasmiy post ostiga «Men ishtirok etyapman» deb izoh qoldiring. **Ishtirok etish mezonlari:**

- Postlar g'oliblar e'lon qilinmaguncha ommaga ochiq holda qolishi kerak.
- E'lon qilingan surat original bo'lishi va ishtirokchining o'zi tomonidan olingan bo'lishi kerak.

- 1.3.1-bandda ko'rsatilgan Aksiya yakunlari kuni ishtirokchi oqimli uzatish xizmatlaridan biri orqali amalga oshiriladigan onlayn translyatsiya vaqtida ishtirok etishi (qatnashishi) kerak:
<https://www.instagram.com/samsunguzbekistan?igsh=ZHpwMXM5eXEzeDIx>

5. Sovg'alar

5.1. Aksiya doirasidagi sovg'a quyidagi SAMSUNG savdo belgisi ostidagi mahsulotlardan iborat bo'ladi («Sovg'a»):

1-o'rin uchun — Samsung Galaxy A56 5G (SM-A566EZGASOZ) telefoni – 1 dona

2-o'rin uchun — Samsung Galaxy A36 5G (SM-A366ELVDSOZ) telefoni – 1 dona

3-o'rin uchun — Samsung Galaxy A26 (SM-A266BZWHSOZ) telefoni – 1 dona.

5.2. Sovg'alarning umumiy soni 3 donani tashkil qiladi.

5.3. Sovg'alar soni cheklangan. Tashkilotchi sovg'alar sonini mustaqil ravishda belgilash, shuningdek uni o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

5.4. Sovg'aning rangi Rasmiy Hamkor omborida yoki 1.1-bandga muvofiq Sovg'alarni topshirish nuqtasi sifatida qabul qilingan manzilda mavjud bo'lgan mahsulotga qarab belgilanadi. Shuningdek, sovg'a rangi Aksiya Veb-saytidagi rasmga nisbatan farq qilishi mumkin.

5.5. Aksiyada berilgan sovg'aga ushbu turdagi mahsulotlarga taalluqli standart kafolat amal qiladi.

5.6. Sovg'a ichiga sovg'ani sozlash yoki ulash bo'yicha har qanday ishlar/xizmatlar kirmaydi.

5.7. Ishtirokchi quyidagi hollarda Aksiyada ishtirok etish huquqini yo'qotadi va sovg'ani olishga da'vo qila olmaydi:

5.7.1. Aksiyaning har qanday shartlarini buzgan taqdirda;

5.7.2. Ishtirokchi bilan bog'lanish uchun noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumotlar taqdim etilganda;

5.7.3. firibgarlik yoki boshqa noqonuniy harakatlar aniqlanganda;

5.7.4. ro'yxatga olish ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga topshirilgan taqdirda;

5.7.5. Ushbu Qoidalarga zid ravishda ma'lumot yoki hujjatlarni taqdim etishdan va/yoki foto/video suratga olishdan bosh tortganda.

5.8. Hech qanday sharoitda Tashkilotchi sovg'ani pul ekvivalentiga va/yoki sovg'ani boshqa mahsulotga almashtirmaydi.

5.9. Sovg'ani olish bilan bog'liq bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni Tashkilotchi o'z hisobidan va o'z zimmasiga oladi.

5.10. Agar kimdir sovg'a qiymatini, soliqlarni yoki boshqa to'lovlarni talab qilsa, iltimos, bunday to'lovlarni amalga oshirmang va darhol Tashkilotchi bilan bog'laning.

5.11. Gʻolib tomonidan 2025 yil 31 iyulgacha talab qilinmagan sovgʻalar talab qilinmagan deb hisoblanadi. Talab qilinmagan sovgʻalar saqlanmaydi va Tashkilotchi tomonidan oʻz ixtiyoriga koʻra foydalaniladi.

6. Aksiya gʻoliblarini baholash tartibi

6.1. Ushbu aksiya doirasida gʻoliblar 5 ta toifa boʻyicha aniqlanadi.

6.1.1. Birinchi oʻrin gʻolibi «Eng kreativ kontent uchun» baholanadi (baholash va ball berish maxfiy fotograf — mehmon tomonidan amalga oshiriladi).

6.1.2. «**Eng kreativ kontent**» nominatsiyasida gʻolib quyidagi mezonlar boʻyicha eng koʻp ball toʻplagan ishtirokchi hisoblanadi:

1. **Kreativlik va originalilik:** Gʻoya qanchalik noyob? — *5 ballgacha*

2. **Tanlov mavzusiga moslik:** Surat tanlov mavzusini qanchalik yaxshi aks ettiradi? — *5 ballgacha*

3. **Hissiy taʼsir:** Surat hissiyot uygʻotadimi, oʻylantiradimi yoki tabassum keltiradimi? — *5 ballgacha*

4. **Vizual kompozitsiya va estetikasi:** Kompozitsiya, rang palitrasi, yoritish, kadrdagi elementlarning muvozanati — *5 ballgacha*

5. **Texnik bajarilish:** Syomka sifati: aniqlik, ekspozitsiya, tahrir, tafsilotlarni aniq yetkazish. — *5 ballgacha*

6.1.3. Ikkinchi va uchinchi oʻrin gʻoliblari barcha ishtirokchilar orasidan tasodifiy raqamlar generatori yordamida aniqlanadi.

6.1.4. Ushbu aksiyada gʻoliblar soni 3 (uch) dona.

6.2. Aksiya gʻoliblarini aniqlash va sovgʻalarni topshirish tartibi

6.2.1. Ushbu Qoidalariga muvofiq, barcha belgilangan shartlar bajarilganda, Ishtirokchi sovg'alar o'yinida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi;

6.2.2. Mustaqil ekspert sifatida Fotograf 6.1.1-bandda ko'rsatilgan ishni baholaydi va natijalarni Samsung Uzbekistan Instagram ijtimoiy tarmog'idagi jonli efir vaqtida e'lon qiladi. Jonli efir davomida Tashkilotchi «G'olib»ning user name'ini namoyish qiladi va unga «g'alaba munosabati bilan shaxsiy xabar» jo'natadi.

6.2.3. G'oliblarni 6.1.3-bandga muvofiq tanlash uchun Aksiya Tashkilotchisi ishtirokchilar orasidan tasodifiy raqamlar generatori yordamida g'olibni («G'olib») tasodifiy tanlash yo'li bilan o'yin natijalarini e'lon qiladi. G'olib Samsung Uzbekistan Instagram ijtimoiy tarmog'idagi jonli efir davomida aniqlanadi. Jonli efir davomida Tashkilotchi «G'olib»ning user name'ini namoyish qiladi va unga «g'alaba munosabati bilan shaxsiy xabar» yuboradi. O'yin 2025 yil 30 iyunda Toshkent vaqti bilan soat 18:30 dan 21:00 gacha o'tkaziladi.

6.3. Sovg'ani olish uchun G'olibga quyidagilar kerak bo'ladi:

6.3.1. Sovg'ani olish uchun G'olib shaxsan va o'z hisobidan ushbu Qoidalarining 1.1-bandida ko'rsatilgan Sovg'alarni topshirish nuqtasiga kelishi kerak;

6.3.2. O'zbekiston Respublikasi fuqarosining pasportini taqdim etish yoki O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lmaganlar uchun yashash guvohnomasini ko'rsatish;

6.3.3. Sovg'ani qabul qilish-topshirish dalolatnomasini to'ldirish va imzolash;

6.3.4. Aksiyada ishtirok etish uchun video joylangan Instagram foydalanuvchi hisobining mavjudligini taqdim etish;

6.3.5. Zarurat tug'ilganda, qo'lida sovg'a bilan fotosessiya o'tkazishga rozilik berish.

6.3.6. Zarurat tug'ilganda, o'tkazilgan aksiya natijalari Tashkilotchi tomonidan Aksiya Saytida va/yoki Tashkilotchi ijtimoiy tarmoqlarida 2025 yil 31 iyulgacha e'lon qilinadi.

6.3.7. Aksiya g'olibi sovg'ani faqatgina ushbu Qoidalarining 1.1-bandida ko'rsatilgan Sovg'alarni topshirish nuqtasida olishi mumkin;

6.3.8. Sovg'alarni topshirish nuqtalari Aksiya g'oliblariga sovg'alarni faqat aksiyaning barcha shartlariga qat'iy rioya qilingan taqdirda taqdim etadi.

7. Aksiya Ishtirokchisining huquqlari va majburiyatlari

7.1. Aksiya Ishtirokchisining huquqlari:

- ushbu Qoidalar bilan tanishish;
- ushbu Qoidalarda belgilangan tartibda Aksiyada ishtirok etish;
- rasmiy hamkorlarning ommaviy resurslari va Aksiya Saytidagi aloqa kanallari orqali Aksiyaning muddati va o'tkazilish shartlari haqida ma'lumot olish;
- o'zgarishlar yuzaga kelsa, u holda ularni Aksiya Saytida ko'rish orqali ushbu Qoidaldagi o'zgarishlar haqida ma'lumot olish;
- kiritilgan o'zgarishlarga rozi bo'lmasa, ishtirokchi Aksiyada ishtirok etishdan voz kechish orqali ushbu o'zgarishlarni qabul qilmaslik. Aksiyada ishtirokni davom ettirish esa, kiritilgan o'zgarishlarga Ishtirokchi tomonidan rozilik sifatida qaraladi;
- Aksiya Tashkilotchisi haqida ma'lumot olish;
- ushbu Qoidalar muvofiq sovg'ani berishni so'rash;

7.2. Aksiya Ishtirokchisining majburiyatlari:

- qoidalar rioya qilish, jumladan, ushbu Qoidalarda belgilangan muddatlarda Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq barcha harakatlarni bajarish;
- Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq barcha xarajatlarni, jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) internet, telefon va boshqa xarajatlarni mustaqil ravishda qoplash;
- ushbu Qoidalarda va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham bajarish.

8. Aksiya Tashkilotchisining huquq va majburiyatlari:

8.1. Aksiya Tashkilotchisining huquqlari:

- Aksiya davri davomida ushbu Qoidalar bir tomonlama o'zgartirish, Aksiya Saytida tegishli xabar joylashtirish orqali ishtirokchini oldindan xabardor qilib Aksiyaning ilgari belgilangan muddatdan avval tugatish. Xabar berish sanasi Aksiya veb-saytida tegishli ma'lumotlarning e'lon qilingan sanasi yoki shartlarni o'zgartirishda ko'rsatilgan qo'shimcha sana hisoblanadi. Aksiyada ishtirok etishni davom ettirish Ishtirokchining kiritilgan o'zgarishlarga roziligi hisoblanadi.

- Ishtirokchilardan ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan hollarda zarur ma'lumotlar va hujjatlarni, shuningdek davlat organlariga taqdim etish uchun boshqa hujjatlarni so'rash;
- Tashkilotchi ushbu Aksiya qoidalarini va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan barcha huquqlardan foydalanadi;
- Qoidalarining 4.1-bandida ko'rsatilgan barcha shartlarni to'g'ri va to'liq bajarmagan Aksiya Ishtirokchisiga sovg'a berishni rad etish;
- Aksiya Ishtirokchisi tomonidan ushbu Qoidalariga rioya qilmaslik fakti aniqlangan taqdirda, Aksiya Ishtirokchisiga Sovg'a berishni rad etish.

8.2. Aksiya Tashkilotchisining majburiyatlari:

- Qoidalariga rioya qilish, Aksiya bilan bog'liq barcha harakatlarni Qoidalarda belgilangan muddatlarda bajarish;
- Aksiyaning Qoidalariga muvofiq o'tkazilishini ta'minlash;
- Aksiyaning o'tkazish qoidalarini Aksiya veb-saytida va tanlangan aloqa kanallari orqali joylashtirish orqali Aksiya Ishtirokchilari uni amalga oshirish Qoidalarini to'g'risida xabardor qilinishini ta'minlash;
- Qoidalarining barcha shartlarini to'g'ri bajargan barcha Aksiya Ishtirokchilariga aksiya sovg'alarini taqdim etish.

9. Boshqa shartlar

9.1. Aksiyaning barcha Ishtirokchilari unda ishtirok etish orqali Aksiya qoidalariga rozilik bildiradilar va ularga rioya qilish va bajarishga majburiyatini oladilar. Ishtirokchi Sovg'ani olish huquqini yo'qotadi agar:

- Ishtirokchi ushbu Aksiya qoidalarini buzsa;
- Ishtirokchi Sovg'ani olish uchun firibgarlik va/yoki aldash harakatiga yo'l qo'ygan bo'lsa;
- Ishtirokchi noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etgan bo'lsa;
- Tashkilotchi ko'rsatilgan aloqa ma'lumotlari orqali 30 kun davomida Ishtirokchi bilan bog'lana olmasa.

9.2. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi ushbu Qoidalariga so'zsiz roziligini bildiradi. Ishtirokchining Qoidalarini to'liq va/yoki qisman bajarishdan bosh tortishi Ishtirokchining Aksiyada ishtirok etishni rad etishi deb e'tirof etiladi.

9.3. Aksiya davomida Ishtirokchidan o'zini tasdiqlash va arizada ko'rsatilgan shaxs bilan mosligini tasdiqlash uchun shaxsni tasdiqlovchi hujjatni va uning nusxasini taqdim etish talab qilinishi mumkin;

9.4. Aksiya tanlov, lotereya yoki boshqa xavfga asoslangan qimor o'yini emas;

9.5. Fikr-mulohazalarni olish uchun, Ishtirokchiga Tashkilotchi/Hamkorning xizmat ko'rsatish sifatini nazorat qilish uchun Sifat nazorati bo'limidan qo'ng'iroq qilishlari mumkin. Ishtirokchi o'z fikrini bildirishdan bosh tortishi mumkin.

Aksiya bilan bog'liq har qanday savollar bo'yicha Tashkilotchiga aloqa ma'lumotlari orqali murojaat qiling.

Tashkilotchining call markazining aloqa ma'lumotlari:

7799 – yagona qo'llab-quvvatlash xizmati.